

# ShARTNOMA

Namangan shahar	№046-F	2022 y. "29" <u>iyun</u>
-----------------	--------	--------------------------

Amaldagi Nizom asosida ish ko'ruvchi, kejinchalik "Yetkazib beruvchi" deb yuritiluvchi OOO "Firdavs Global Farm" nomidan ish ko'ruvchi O.Мамадалиев bir tomondan va amaldagi Ustav asosida ish ko'ruvchi, keyinchalik "Haridor" deb yuritiluvchi "Андижон вилояти Фтизиатрия клиник шифохонаси" nomidan byudjet tashkiloti rahbari Э.Идрисов ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

## I. ShARTNOMA MAVZUSI

1.1. "Yetkazib beruvchi" mazkur shartnoma bo'jicha "Haridor"ga o'zaro kelishilgan miqdorda va muddatlarda shartnomaning umumiy qiymatidan oshmagan holda (Tibbiy va dori vositalari)ni yetkazib berish. Yetkazib beriladigan tovarlarning shartnoma tuzish vaqtidagi miqdori, narhi va yetkazib berish muddati quyidagicha specifikasiyada belgilangan.

## II. ShARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

2.1. Mazkur shartnomaning bahosi 3,500,000 (Yz uch mingga besh yuz ming so'm)

- 2.2. "Haridor" olinadigan tovarlar uchun amaldagi qonunchilikda ko'rsatilgan, ya'ni 30 foiz avans to'lovini oldindan "Yetkazib beruvchi" hisob raqamiga o'tkazib beradi.
- 2.3. "Yetkazib beruvchi" tegishli davrda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq belgilangan miqdorda va avans to'lovidan so'ng 15 kun muddat ichida tovarlarni "Haridor"ga yetkazib beradi.
- 2.4. "Haridor" taqdim etilgan hujjatlarga asosan kolgan 70 foiztulovni 90 kundan ortiq bo'lmagan muddatlarda uzil-kesil hisob-kitob qiladi.
- 2.5. Yetkazib berilgan tovarlar uchun pul o'tkazish yo'li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

## III. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 3.1. "Haridor"ning ququq va majburiyatlari: "Yetkazib beruvchi"dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish; "Yetkazib beruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifat, assortimentdagi tovarlarni yetkazib berilishini talab qilish;
- 3.2. "Yetkazib beruvchi" quyidagi huquq va majburiyatlarga ega:  
Yetkazib berilgan tovarlarni uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil qisob qilinishini Haridordan talab qilish;  
Tovarlarni mazkur shartnomaga asosan "Haridor" buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda etkazib berish.

## IV. ShARTNOMANING BAJARILISHI

- 4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.
- 4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad yetishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.
- 4.3. "Haridor" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yohud tovarlarning tegishli turkumlarini yetkazib berish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Yetkazib beruvchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 3 kun oldin habardor qiladi.

## V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 5.1. Tovarlarni yetkazib berish kechiktirilgan yoki to'liq etkazib berilmagan taqdirda "Yetkazib beruvchi" "Haridor"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan tovarlar qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.
- 5.2. Yetkazib berilgan tovar uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda "Haridor" "Yetkazib beruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'lajdi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.
- 5.3. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va tovar etkazib berish muddati kechiktirilishi yoki to'liq etkazib berilmasligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod yetmaydi.

## VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

- 6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal yetish choralarini ko'radilar.
- 6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal yetish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.
- 6.3. Fors-major holati, ya'ni tomonlarga bog'liq bo'lmagan holatlar (yong'in, suv toshkini shu kabi yengib bulmaydigan kuchlar) yuz bergan taqdirda majburiyatlar bajarilmaganligi uchun Javobgarlikdan ozod yetiladi.

## VII. ShARTNOMANING AMAL QILISHI

- 7.1. Mazkur shartnoma "Haridor" va "Etkazib beruvchi" tomonidan tasdiqlanib so'ng g'aznachilik bo'linmalaridan ro'yhat o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr gacha amal qiladi.
- 7.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'htatiladi.